

“OFB va Mastercard bilan yutuqli xaridlar!” marketing aksiyasini o‘tkazish qoidalar

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Mazkur Qoidalar «Mastercard bilan xarid qiling va sovg‘alarni qo‘lga kiring!» marketing aksiyasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi, shartlari hamda muddatlarini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya tashkilotchisi — «Orient Finans» XATB.
- 1.3. Aksiya 2026-yil 23-sentabrdan 2026-yil 23-dekabrgacha bo‘lgan davrda o‘tkaziladi.
- 1.4. Aksiya Mastercard xalqaro to‘lov kartalari orqali amalga oshiriladigan transchegaraviy (cross-border) operatsiyalar hajmini oshirish, mijozlarning tranzaksion faolligini rag‘batlantirish, yangi Mastercard karta egalarini jalb etish hamda Bankning karta mahsulotlarini ommalashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

2. Aksiya ishtirokchilari

- 2.1. Aksiya ishtirokchilari aksiya o‘tkaziladigan davrda «Orient Finans» XATB mobil ilovasi orqali Mastercard kartasini rasmiylashtirgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.
- 2.2. Aksiyada 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishi mumkin.
- 2.3. «Orient Finans» XATB xodimlari, ularning yaqin qarindoshlari, shuningdek, aksiyani tashkil etish va o‘tkazishda bevosita ishtirok etgan shaxslar aksiyada qatnashishi mumkin emas.
- 2.4. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining mazkur Qoidalar bilan tanishganini va ularga to‘liq rozilik bildirganini anglatadi.
- 2.5. Ishtirokchi aksiya shartlari yoki mazkur Qoidalar talablarini buzgan taqdirda, Tashkilotchi uni buning sabablarini ko‘rsatmagan holda aksiyada ishtirok etishdan chetlashtirish huquqiga ega.

3. Ishtirok etish shartlari

- 3.1. Oylik oraliq sovrinlar yutug‘ida ishtirok etish uchun mijoz aksiya davrining tegishli oyida Mastercard kartasi orqali jami 200 AQSh dollari va undan ortiq miqdorda transchegaraviy (cross-border) operatsiyalarni amalga oshirishi lozim.
- 3.2. Mazkur Qoidalarda transchegaraviy (cross-border) operatsiya deganda bank plastik kartalar orqali amalga oshiriladigan to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ro‘yxatdan o‘tgan bank, to‘lov tashkiloti yoki boshqa moliya muassasasi ishtirok etadigan operatsiya tushuniladi. Bunday operatsiyalarga xorijiy bank kartalariga pul o‘tkazmalari, xorijiy internet-do‘konlar va xalqaro raqamli servislar uchun to‘lovlar, shuningdek, xalqaro to‘lov tizimlari orqali amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalar kiradi. Bunda mijozning operatsiya amalga oshirilgan paytdagi joylashuvi ahamiyatga ega emas.
- 3.3. Tranzaksiya — kalendar oy davomida tovarlar va xizmatlar, shu jumladan Internet tarmog‘i orqali xarid qilingan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirilishi natijasida Karta egasining hisobvarag‘ida aks ettirilgan chiqim operatsiyasidir. Bankomat yoki bank kassalari orqali kartadan naqd pul yechish, shuningdek, konversiya operatsiyalari tranzaksiya hisoblanmaydi. Aksiyada ishtirok etuvchi tranzaksiya summasi Bank komissiyasi hisobga olinmagan holda aniqlanadi.
- 3.4. Bosh sovrin yutug‘ida ishtirok etish uchun mijoz tegishli oy davomida Mastercard kartasi orqali jami 500 AQSh dollari va undan ortiq miqdorda transchegaraviy (cross-border) operatsiyalarni amalga oshirishi lozim.

3.5. Bir ishtirokchi aksiya davomida bir necha marotaba sovrindor bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, 200 AQSh dollari shartini bajargan ishtirokchilar 500 AQSh dollari sharti bajarilgan taqdirda bosh sovrin yutug'ida ham ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar.

4. Yutuq o'tkazish tartibi

4.1. Sovrinlar yutug'i har oy yakunlari bo'yicha «Orient Finans» XATB Komissiyasi a'zolari ishtirokida o'tkaziladi.

4.2. Har oy 200 AQSh dollari va undan ortiq miqdorda transchegaraviy operatsiyalarni amalga oshirgan ishtirokchilar orasidan quyidagi g'oliblar aniqlanadi:

1 nafar — Apple iPhone 17 Pro;

1 nafar — Apple MacBook Air 13" M3;

1 nafar — Dyson fen;

5 nafar — 5 000 000 so'mdan pul mukofoti.

4.3. Har oy 500 AQSh dollari va undan ortiq miqdorda transchegaraviy operatsiyalarni amalga oshirgan ishtirokchilar orasidan 1 nafar g'olib aniqlanadi va unga ikki kishilik Dubayga sayohat yo'llanmasi topshiriladi.

4.4. Yutuqlar quyidagi bosqichlar bo'yicha o'tkaziladi:

1-bosqich — 23.09.2026–23.10.2026 → Qur'a 30.10.2026-yilgacha o'tkaziladi;

2-bosqich — 24.10.2026–23.11.2026 → Qur'a 30.11.2026-yilgacha o'tkaziladi;

3-bosqich — 24.11.2026–23.12.2026 → Qur'a 30.12.2026-yilgacha o'tkaziladi;

Har bir bosqich yakunida oraliq va bosh sovrinlar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi.

4.5. G'oliblar Random.org (<http://random.org/>) yoki shunga o'xshash tasodifiy sonlar generatori yordamida aniqlanadi.

4.6. «Orient Finans» XATB nizoli holatlar bundan mustasno, aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa yozishmalar olib bormaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.7. «Orient Finans» XATB mazkur Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek sovrinlar fondiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Bu haqda Bankning rasmiy veb-saytida kamida 3 (uch) ish kuni oldin e'lon qilinadi.

4.8. «Orient Finans» XATB sovrinlardan foydalanish jarayonida g'olibning hayoti yoki sog'lig'iga, shuningdek uchinchi shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar hisoblanmaydi. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining ushbu Qoidalar bilan tanishgani va ularga to'liq roziligini, shuningdek, uning ism-familiyasi, fotosurati va boshqa ma'lumotlaridan reklama hamda axborot maqsadlarida foydalanilishiga roziligini anglatadi.

4.9. Ushbu aksiyani o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar «Orient Finans» XATB va ishtirokchi o'rtasida o'zaro kelishuv va muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.

4.10. «Orient Finans» XATB Random.org (<http://random.org/>) yoki shunga o'xshash dastur orqali har bir bosqich yakunida barcha sovrinlar bo'yicha g'oliblarni hamda Dubayga sayohat yo'llanmasi uchun qo'shimcha ravishda 2 nafar zaxira nomzodni aniqlaydi.

4.11. Agar Dubayga sayohat yo'llanmasi g'olibi sovrinni olishdan bosh tortsa yoki belgilangan muddatda olmasa, sovrin birinchi zaxira nomzodga beriladi. Birinchi zaxira nomzod ham sovrinni olishdan bosh tortgan taqdirda sovrin ikkinchi zaxira nomzodga beriladi.

4.12. Agar asosiy g'olib va ikki nafar zaxira nomzod Dubayga sayohat yo'llanmasini olmasa yoki olishdan bosh tortsa, Komissiya qaroriga ko'ra yangi g'olib aniqlanadi.

4.13. Zarurat tug'ilganda Tashkilotchi sovrin topshirilgunga qadar qo'shimcha qur'a o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Aksiya natijalari bo'yicha Komissiya bayonnomasi tuziladi va barcha komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi.

4.14. G'oliblarning ismlari «Orient Finans» XATBning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi hamda Bankning rasmiy ijtimoiy tarmoqlarida joylashtirilishi mumkin.

4.15. G'oliblar Bank tomonidan SMS-xabarnoma yuborish yoki Bankda ro'yxatdan o'tgan telefon raqami orqali bog'lanish yo'li bilan xabardor qilinadi.

4.16. Ishtirokchi tomonidan aksiya shartlariga rioya qilinmaganligi oqibatida yuzaga keladigan holatlar uchun Tashkilotchi javobgar hisoblanmaydi.

5. Sovrinlar fondi

5.1. Aksiya doirasida quyidagi sovrinlar nazarda tutiladi:

har oy 1 dona Apple iPhone 17 Pro (jami 3 dona);

har oy 1 dona Apple MacBook Air 13" M3 (jami 3 dona);

har oy 1 dona Dyson fen (jami 3 dona);

har oy 5 nafar g'olib uchun 5 000 000 so'm miqdoridagi pul mukofoti (jami 15 ta pul mukofoti);

har oy 1 nafar g'olib uchun ikki kishilik Dubayga sayohat yo'llanmasi (jami 3 ta sayohat yo'llanmasi).

5.2. Sovrinlarning yakuniy soni va tarkibi Tashkilotchi tomonidan belgilanadi.

5.3. Pul mukofotlari bundan mustasno, boshqa sovrinlarning pul ekvivalenti ishtirokchilarga to'lanmaydi.

6. Sovrinlarni olish tartibi

6.1. Pul mukofotlari g'olibning «Orient Finans» XATBdagi hisobvarag'iga o'tkaziladi. Moddiy sovrinlar hamda Dubayga sayohat yo'llanmalari Bank tomonidan belgilangan joy va sanada topshiriladi.

6.2. Sovrinni olish uchun g'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini taqdim etishi shart.

6.3. Sovrin topshirilishi qabul-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

6.4. Sovringa egalik huquqi sovrin topshirilgan paytdan boshlab g'olibga o'tadi.

6.5. Sovrinlarni topshirish ommaviy tadbir shaklida hamda ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

6.6. Sovrinni olishning oxirgi muddati — 2027-yil 29-yanvargacha.

7. Ishtirokchilarni xabardor qilish

7.1. Aksiya ishtirokchilarini xabardor qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- reklama materiallarini joylashtirish;
- bank ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilish;
- bank rasmiy saytida joylashtirish.

7.2. Batafsil ma'lumot www.ofb.uz saytida joylashtiriladi.

7.3. Qo'shimcha ma'lumotni bankning ishonch telefoni orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99, 4004.